

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT ARHITEKTURA QURILISH UNIVERSITETI

“K E L I S H I L D I”
TAQU ITI prorektori
_____ D.Sh.Mirdjalilova
2026-yil “ ____ ” _____

“T A S D I Q L A Y M A N”
TAQU rektori
_____ B.A.Tulaganov
2026-yil “ ____ ” _____

OLYGOH KUBOGINI DOIRASIDA
“QURILISH MUHANDISLIGI” (ENG YAXSHI KONSTRUKSIYA)
TANLOVINI O‘TKAZISH
DASTURI

Toshkent-2026

OLIYGOH KUBOGINI DOIRASIDA
“QURILISH MUHANDISLIGI” (ENG YAXSHI KO’PRIK
KONSTRUKSIYA)
TANLOVINI O’TKAZISH
DASTURI

1. Tanlovni o’tkazish shartlari

“Qurilish muhandisligi” (Eng yaxshi ko’prik konstruksiyasi) tanlovi “Muhandislik oyli” doirasida o’tkaziladi. Tanlov bino va inshootlarning eng kam material sarfi orqali eng ko’p yuk ko’taruvchi konstruksiyani yasash bo’yicha texnik-ijodiy musobaqadir.

Tanlov davomida ishtirokchilar ko’prik maketini real vaqt rejimida yaratib, uning mustahkamligini yuk qo’yish orqali sinovdan o’tkazadilar.

Maqsad va vazifalar:

- Muhandislik va iqtisodiy samaradorlik talablarini amaliyotda qo’llash;
- Eng kam material sarfi orqali eng ko’p yuk ko’taruvchi konstruksiyalarni yaratish bo’yicha ko’nikmalarini rivojlantirish;
- Yosh muhandislarning ijodiy va texnik salohiyatini namoyon qilish;
- Mustaqil fikrlash va konstruktiv yechimlar yaratish qobiliyatini shakllantirish.

Ishtirokchilar va jamoa tarkibi:

Arxitektura va qurilish muhandisligi yo’nalishida tahsil olayotgan talabalar va magistrlar

Yosh chegarasi: 17–25 yosh.

Tanlovda ishtirokchilar yakka tartibda qatnashadi.

Har bir ishtirokchi bitta loyiha bilan ishtirok etishi mumkin.

Tanlov bosqichlari:

Ro’yxatdan o’tish bosqichi - “Qurilish muhandisligi” (Eng yaxshi ko’prik konstruksiyasi) tanlovida ishtirok etish istagida bo’lgan talabgorlar tanlov uchun mas’ul “Qurilish muhandisligi” kafedrasiga murojaat qilish orqali ro’yxatdan o’tadi.

Saralash bosqichi – ushbu bosqichda tanlov uchun mas’ullar tomonidan kelib tushgan arizalar tanlov shartlariga muvofiqligi tahlil qilgan holda saralab olinadi.

Tanlov bosqichi:

- Ko’prik maketini joyida yig’ish;
- Maketga yuk qo’yish.

O'lcham va sinov shartlari

Foydalaniladigan materiallar

№	Nomi	Ko'rinishi	O'lchami	Soni
1	Standart ko'rinishdagi muzqaymoq cho'pchalari		11,4x9,6x2 mm	dona
2	Yelim (Termoyelim pistoleti)		Standart o'lchamli	1 to'plam, 10 dona yelim
3	Maket pichog'i (Skalpel)		Standart o'lchamli	1 dona
4	Metall chizg'ich		30 sm	1 dona
5	Tashkilotchilar tomonidan taqdim qilinivchi namuna chizmasi		A3	1 varaq

Maket faqat tashkilotchilar tomonidan taqdim etilgan materiallar yordamida yasaladi.

Maketni yasashga beriladigan vaqt – 3 soat

Bino maketi o'lchamlari:

- Uzunligi: kamida 60 sm;

- Eni va balandligi: 9x15 sm.

Maket tanlov shartlariga mos hajmda bo'lishi kerak.

Maket sinovdan o'tqazilayotganda ishtirokchilar va tomoshabinlar uchun xavfsiz bo'lishi zarur.

Sinov yakunida ko'prik maketi ma'lum miqdorda yuk ko'tara olishi kerak.

Xavfsizlik talablari:

Maket sinash vaqtida ishtirokchilar va tomoshabinlar uchun xavfsiz bo'lishi zarur.

Final sinov protokoli:

Maketga tashkilotchilar tomonidan tayyorlangan maxsus yuklar ilish uchun belgilangan joyga o'rnatiladi va yuklanadi.

Hakam tanlov shartini tekshiradi.

Maketni yuklash hakamlar tomonidan belgilangan mas'ul tomonidan amalga oshiriladi.

2.Baholash mezonlari (maksimal 100 ball)

№	Mezon	Ball
1	Konstruksiyaning chidamliligi (musobaqa davomida eng ko'p yuk ko'targan maketga - 40 ball, keyingi o'rinlarga eng ko'piga nisbatan foiz hisobida baholanadi)	0–40
2	Konstruksiyaning to'g'ri tanlanganligi	0–20
3	Maketning vazniga nisbatan yuk ko'tarish darajasi (musobaqa davomida vazniga nisbatan eng ko'p yuk ko'targan maketga - 30 ball, keyingi o'rinlarga eng ko'piga nisbatan foiz hisobida baholanadi)	0–30
4	Maketning tugallanganligi	0–10
	Jami	100 ball

Baholashda talab qilinadigan ustuvor jihatlar:

- Eng yaxshi muhandislik yechimi
- Eng yaxshi yuk ko'taruvchi ko'prik

**3. Natijalarni baholash uchun tuziladigan
Ishchi komissiya tarkibi**

№	Lavozimi	Familiyasi, ism va sharifi
1	Rais	S.A.Yusufxo'jayev - t.f.f.d. (PhD), professor
2	Rais o'rinbosari	B.A.Axmedov-t.f.f.d. (PhD), dotsent
3	Komissiya a'zosi	J.D.Ergashov- t.f.f.d. (PhD), dotsent
4	Komissiya a'zosi	M.R.Saydazimov- dotsent
5	Komissiya a'zosi	K.Q.Shukurova - dotsent

4. Rag'batlantirish hajmi

O'rin	Rag'batlantirish miqdori
1-o'rin	15 mln.so'm
2-o'rin	10 mln. so'm
3-o'rin	5 mln. so'm